



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ**
4 ЖИЛД, 4 СОН

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА**
ТОМ 4, НОМЕР 4

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART**
VOLUME 4, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2021

Бош муҳаррир:
Холбеков Муҳаммаджон
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Тўхтасинов Илхом
ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Таҳрир хайъати:

Назаров Бахтиёр
академик (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Раҳиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Хамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек
масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:
Холбеков Муҳаммаджон
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:
Тухтасинов Илхом
к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

Редакционная коллегия:

Назаров Бахтиёр
академик (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Раҳиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек
отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:
Kholbekov Muhammadjan
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor
Tuhtasinov Ilhom
Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

Editorial Board:

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogly
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek
Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

Pagemaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

47. Gazibekova Sohiba Yusupovna FITONIMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	5
48. Каххорова Гулрух Шавкатовна ЮКЛАМАЛАРНИНГ ГРАММАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	10
49. Исломов Икром Хушбоқович ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ МИЛЛИЙ КОРПУСИДА ГЕОГРАФИК ТЕРМИНЛАРНИ БЕРИШ МАСАЛАСИ.....	17
50. Хамидова Муборак Ҳафизовна ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА АНЕМОНИМ ВА МЕТЕРИОНИМЛАР.....	23
51. То'rayeva Zuhra Abdualim qizi NUTQIY AKT MAZMUNI VA "AYBLOV" NUTQIY AKTINING BEHAVITIV IFODASI.....	31
52. Эрданова Зебинисо Абулкасиновна ЗАМОНАВИЙ ЛИНГВИСТИКАДА ИНСОН ВА УНИНГ ФАОЛИЯТИ АКС ЭТИЛИШИ.....	36
53. Sodiqova Yulduz Furqatovna LINGVISTIK VA ADABIY KOMPETENTSIYALAR SHAKLLANISHIDA BADIY MATN FILOLOGIK TAHLILINING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....	43
54. Khamraeva Z. Kh. COMPLEX SENTENCES IN ENGLISH LANGUAGE AND ITS CLASSIFICATION.....	48
55. Дилфуза Турдалиева АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА МАҚОЛЛАР ГРАДУОНИМИЯСИ.....	53
56. Khudoyorova Safura Tulkin kizi THEORETICAL BASIS OF COMPARATIVE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE LINGUACULTURAL ASPECT.....	58
57. Namazova Manzura Urakovna AMIR XUDOYBERDI SHE'RLARINING DUNYO TILLARIGA TARJIMASI VA UNING AHAMIYATGA MOLIK LHATLARI.....	64
58. То'rayeva Zuhra Abdualim qizi NUTQIY AKT MAZMUNI VA "AYBLOV" NUTQIY AKTINING BEHAVITIV IFODASI....	71
59. Аззамов Ю.Р. ГАСТРОНОМИК КОМПОНЕНТЛИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	76
60. Мамарасулова Гулноз ИНГЛИЗ РОМАНТИЗМ ШЕЪРИЯТИГА ШАРҚ ОЛАМИНИНГ ТАЪСИРИ.....	84
61. Эрданова Зебинисо ЗАМОНАВИЙ ЛИНГВИСТИКАДА ИНСОН ВА УНИНГ ФАОЛИЯТИ АКС ЭТИЛИШИ.....	92
62. Холдикова Нозима Нематиллоевна БАДИЙ ТАРЖИМАДА МИЛЛИЙЛАШТИРИШ ВА УНИВЕРСАЛ РЕАЛИЯЛАРНИНГ ДЕТЕКТИВ АСАРДАГИ ВАЗИФАЛАРИ.....	99
63. Davlatova Mukhayyo Hasanovna THE EXPRESSION OF RESULTATIVE AND DEPICTIVE CONSTRUCTIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	107

64. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna THE RELEVANCE OF THE SEMANTIC FIELD "EVIL SPIRITS" IN MODERN LITERATURE.....	113
65. Башарова Лайла ВИДЫ ИЛЛЮСТРАЦИЙ И ТЕХНОЛОГИИ ИХ СОЗДАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ПРОСТРАНСТВЕ ВИЗУАЛЬНЫХ КОММУНИКАЦИЙ.....	118
66. Нуриддинов Шахобиддин Бабаярович БИР ҒАЗАЛ МАТНИ ТАРИХИ ТЎҒРИСИДА.....	122
67. Сайдуллаева Сурайё Сераждиновна ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА НУТҚИЙ ЭТИКЕТЛАРНИНГ ГОЛОФРАСТИК ТИЗИМИ ВА УНИНГ ШАКЛЛАРИ.....	128
68. Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna, Islamova Ozoda G'ulom qizi LEKSIK VA FRAZEOLOGIK ANTONIMIYA HODISASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (fransuz tili materialida).....	133
69. Гули Тоирова Ибрагимовна ТИЛ КОРПУСЛАРИ ВА МИЛЛИЙ КОРПУСНИ ЯРАТИШ ХУСУСИДА.....	140
70. Davlatova Mukhayyo Hasanovna THE EXPRESSION OF RESULTATIVE AND DEPICTIVE CONSTRUCTIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	147
71. Джумабаева Жамила Шариповна, Ташпулатова Ширин Зиявуддин кизи ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ ХОЛАТ ФЕЪЛЛАРИДА СЕМАНТИК ДАРАЖАЛАНИШ.....	153
72. Xoliqova Laylo Faxriddinovna FILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MAZMUNLI VA TIZIMLI LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	159
73. Sadikova B. M. ITALYAN PAREMIOLOGIYASINI LINGVISTIK JHATDAN O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	164
74. Эгамназаров Кобил Абдуназарович СУБСТАНЦИАЛ ВА КВАЛИФИКАТИВ ИНДЕФИНИТ ТЕМПОРАЛ СИНТАКСЕМА ВАРИАНТЛАРИ.....	169
75. Suyunova Nasiba Bo'riqul qizi O'SMIRLAR NUTQINING BIXEVIORLINGVISTIK VA ETNOSOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	175
76. Ходжаева Д.И. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TERMINOLOGIYA:RIVOJLANISHI, BOYISH VA XUSUSIYATLARI.....	182
77. Ким Татьяна Сергеевна АНТОНИМИЧНЫЕ ЕДИНИЦЫ В ЭССЕ ЛИ О РЕНА «СОПЕРНИК».....	188

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Д.И.Ходжаева

Табийий йўналишларда чет тили
кафедраси мудири, PhD, БухДУ

О‘ЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ТЕРМИНОЛОГИЯ: РИВОЖЛАНИШИ, БОЙИШ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-4-76>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslikda terminologiyaning o'rni, rivojlanishi va boyishi haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Maqolada, shuningdek, tilshunoslikda terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqidagi mavjud bo'lgan ikki dunyoqarash tahlil etilib, terminlarning shakllanishi hamda yasalish yo'llari kabi juhatlar xususida ham fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, adabiy til, so'z boyligi, jurnal, hodisa, ma'no, omonimiya, semantic

Д.И.Ходжаева

Заведующая кафедрой иностранных языков для
направлений естественных наук, PhD, БухГУ

ТЕРМИНОЛОГИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ: РАЗВИТИЕ, ОБОГАЩЕНИЕ И СВОЙСТВА

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается роль, развитие и обогащение терминологии в лингвистике. В статье также анализируются два существующих мировоззрения о роли терминологии в лингвистике, эффективном использовании готовых лексических ресурсов национального языка при формировании и построении терминов и семантические средства словообразования.

Ключевые слова: терминология, литературный язык, лексика, журнал, событие, значение, омонимия, семантика.

D.I.Khodjaeva

The Head of Foreign Languages in
Natural Sciences Department, PhD, BSU

TERMINOLOGY IN UZBEK LINGUISTICS: DEVELOPMENT, ENRICHMENT AND FEATURES

ANNOTATION

This article discusses the role, development and enrichment of terminology in linguistics. Two existing worldviews about the role of terminology in linguistics, the effective use of ready-made lexical resources of the national language in the formation and construction of terms are also analyzed in the article.

Keywords: terminology, literary language, vocabulary, journal, event, meaning, homonymy, semantics

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya sohasida olib borilgan qator tadqiqotlarga qaramay, terminni ta'riflash muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Terminning muhim xususiyatlarini o'rganishga juda ko'p sonli fundamental tadqiqotlar olib borilgan, ammo tilshunoslikda hali ham terminni aniqlashning universal va to'liq usullarini ishlab chiqishga erishilmagan.

Ma'lumki, terminning eng muhim xususiyati shundaki, u o'zi anglatgan tushuncha bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Termin muayyan tushuncha ifodalaydi va shu tushunchaning shakllanishida ishtirok etadi. Demak, termin – o'ta murakkab, o'ziga e'tiborni talab qiladigan lingvistik hodisadir. Shuning uchun dunyo tilshunosligida uni ta'riflashga, funktsional xossalari aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Jahonning barcha mamlakatlarida terminologik markazlarning faoliyat ko'rsatayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi. U ham boshqa lisoniy hodisalar kabi turlicha ta'rif va tavsifga ega. Bu ta'rifu-tavsiflarni kuzatish jarayoni ularning aksar holda ilmiy va didaktik manbalarda asosan bir xil berilganligini ko'rsatadi. Bu quyidagi qiyoslarda ko'zga tashlanadi:

1. "Term [t3:m; NAmE t3:rm] *noun* see also TERMS 1 [C] a word or phrase used as the name of sth, especially one connected with a particular type of language: *a technical / legal / scientific, etc. term • a term of abuse • 'Register' is the term commonly used to describe different levels of formality in language.* → note at WORD" [18, 1526].

2. «Термин [лат. terminus – предел, граница, пограничный знак] – слово или словосочетание, точно обозначающее какое-либо понятие, применяемое в науке, технике, искусстве. В отличие от слов общеупотребительных, которые часто бывают многозначными, термины, как правило, однозначны, им не свойственна также экспрессия» [1, 442-443].

6. "Термин [р<лат] – фан, техника, касб-хунарнинг бирор соҳасига ҳос муайян бир тушунчанинг аниқ ва барқарор ифодаси бўлган сўз ёки сўз бирикмаси; атама" [21, 165].

7. "Термин [лот.terminus – чек, чегара] Фан, техника, касб-хунарнинг бирор соҳасига ҳос муайян бир тушунчанинг аниқ ва барқарор ифодаси бўлган сўз ёки сўз бирикмаси; атама. *Ботаника терминлари. Зағарлик терминлари. Пахтачилик терминлари*" [23, 73].

Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasini qiyosiy tadqiq qilgan

P. Nishonov terminni quyidagicha izohlaydi: "Terminlar semantik jihatdan maxsus soha doirasi bilan chegaralanadi va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir" [15, 17]. O.Axmedov: "...terminlar aslida leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo'lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi. Zero, terminlar va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir" – deya ta'kidlaydi [2, 19].

Ko'rinadiki, yuqorida keltirilgan lingvistik va leksikografik manbalarda termin deganda, muayyan tushunchani aniq ifodalovchi fan, texnika, san'at va boshqa turli sohalarida qo'llanuvchi so'z yoki so'z birikmasi tushuniladi.

Zamonaviy ta'riflar orasida A.S.Gerd qarashlari muayyan ilmiy asosga ega. Olim fikricha, termin – ilm-fan taraqqiyotining ma'lum darajasida mavjud bo'lgan ilmiy tushunchaning asosiy xususiyatlarini aniq va to'liq aks ettiradigan maxsus terminologik ma'noga ega bo'lgan ma'lum tabiiy yoki sun'iy til birligidir (so'z yoki so'z birikmasi) [6, 3].

Keyingi paytlarda *termin* so'zi *atama* so'zi bilan sinonim sifatida qo'llanmoqda. Ba'zi manbalarda mazkur terminlar borasida berilgan bir-birini inkor etuvchi fikrlarni keltiramiz "*Termin* so'zi o'rnida ba'zan *atama*, *istiloh* so'zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to'g'ri emas. *Atama termin* so'ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. *Istiloh* so'zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me'yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi" [27, 13]; "O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgunga qadar va u amal qila boshlagandan keyin qator-qator matbuot xodimlari, ayrim tilshunoslar Davlat tili haqidagi qonunni to'liq joriy etish o'rniga, uning ayrim bandlariga deyarli e'tibor bermay, ko'pdan buyon qo'llanib kelinayotgan va omma nutqiga

singib ketgan ko'plab terminlarni, ularning ichki mazmunini o'rganmay turib, yangidan noto'g'ri hosil qilingan leksemalar bilan almashtira boshlashdi. Hatto, "termin", "terminologiya" kabilar "atama", "atamashunoslik" leksemalari bilan almashtirib qo'llanadigan bo'ldi. Binobarin, "atama", "atamashunoslik" kabi tushunchalar umumxarakterda bo'lganligi e'tiborga olinmadi. Chunki, "atama" deyilganda, terminologiyaga mutlaqo aloqasi bo'lmagan onomastika (toponimiya, antroponimiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi" [26, 13].

"Atama fan va texnika, madaniyat va san'at sohasidagi bir aniq tushunchani ifodalaydigan so'zdir. Masalan, fon, fonema, fonologiya, paradigma kabi atamalar tilshunoslikka xosdir. Atamashunoslik atamalarni o'rganadigan fan tarmog'idir" [10, 165]; "Atama *esk. ayn. termin*" [20, 61]; "**Atama 1 ayn. termin. 2** Umuman, nom. *Lekin shamanni har bir xalq o'z tilidagi nom, atama bilan yuritib kelgan. Respublikamizning o'zidagina 400 dan ortiq turli-tuman qovun atamalari mavjud ekan*" [22, 113].

Keyingi uchta manbada berilishicha, *atama* so'zi *termin* so'zi bilan aynan bir ekanligi ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, bunday qarash bahslidir. *Termin* so'zi ma'lum bir sohada qo'llansa, *atama* so'zining ma'nosi *termin* so'zining ma'nosidan kengroq bo'lib, u barcha narsalar va hodisalarning nomi sifatida tushuniladi.

Terminologiyaning kelib chiqishi Avstriyalik olim Oygena Vyuster va Dmitriy Semyonovich Lottelarning sharaflil nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular ilk tadqiqot ishlarini 1930-yilda nashr etganlar. Hozirgi vaqtda bir necha milliy maktablar – avstriya-nemis maktabi, frank-kanada maktabi, rus maktabi, Chexiya maktablari terminologiyaning nazariy masalalariga turli tomondan yondashib, o'z tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Ularning ichida Rossiya terminologiya maktabi yetakchilik qilmoqda.

Hozirgi paytda terminologiyada ilmiy tadqiqotlarning bir necha mustaqil yo'nalishi yuzaga kelgan. Bular maxsus leksika taraqqiyoti va qo'llanishi qonuniyatlarini o'rganadigan *nazariy terminologiya*; termin va terminologiyadagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish, termin va terminologiyani tavsiflash, baholash, tahrir qilish, tartibga solish, yaratish, qo'llash va tarjima qilish bo'yicha tamoyil va tavsiyalar ishlab chiquvchi *amaliy terminologiya*.

Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" ob'ekt tarzida baholanadi [29].

Terminologiya taraqqiy etib, o'z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni o'rganish uning eng asosiy va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Hozirgi davrda terminlarni o'rganish tilshunoslikning alohida sohasini – terminologiyani shakllantiradi [29].

Manbalarda terminologiyaga shunday ta'rif beriladi: 1. Terminologiya – fan, texnika, san'at va sh.k.larning biror sohasida qo'llanadigan terminlari majmuidir [16, 492]. 2. Terminshunoslik – maxsus leksikani uning tipologiyasi, kelib chiqishi, shakli, mazmuni (ma'nosi), funktsiyasi hamda qo'llanishi, tartibga solinishi va yaratilishi nuqtai nazaridan o'rganuvchi fan [31]. Keltirilgan ta'riflardan birinchisi ilmiy va leksikografik manbalarda keng tarqalgan bo'lsa, ikkinchisida terminologiyaning maqsad va vazifalari ochib berilgan.

Terminga xos belgilardan biri uning izohi va ta'rifiga oydinlik kiritish, terminning ma'noviy qurshovida mavjud qo'shimcha semalarni yuzaga chiqarish ilm-fan tilining rivojlanishida, o'zga sohaga oid terminologik tizimlar tarkibida yaqqol seziladi. Bugungi o'zbek terminologiyasining boyishida yuqorida zikr etilgan jihatlar hamon ustunlik qilmoqda. O'z qatlamning salmoqli o'rni qatori, o'zlashmalarning ham sezilarli mavqei saqlanib qolmoqda. O'zlashmalarning til terminologiyasi boyishidagi o'rmini birgina internet terminlari misolida ko'rish mumkin. Olib borilgan izlanishlar o'zbek tili internet terminologiyasining 54% ini o'zlashmalar, chunonchi, rus tilidan o'zlashgan internet terminlari 31%, ingliz tilidan aynan o'zlashgan baynalmilal internet terminlari 23% ni tashkil etishini ko'rsatgan. Xullas, o'zbek terminologiyasi bir necha asrlilik shakllanish va taraqqiy etish bosqichlarini bosib o'tdi. Bu bosqichlarda o'zbek terminologiyasi nafaqat o'z ichki resurslari, shuningdek, qarindosh bo'lmagan tillar boyliklaridan o'rni bilan foydalangan holda rivojlanish yo'lida davom etdi. Terminlarning shakllanish hamda yasaliish yo'llari

xususida soʻz ketganda quyidagi jihatlarni inobatga olish taqozo etiladi: oʻz milliy tilning tayyor leksik boyliklaridan unumli foydalanish; boshqa tillarning soʻz boyliklaridan oʻrni bilan istifoda etish (oʻzlashtirish); tayyor standart terminolemlar (oʻzbekcha va baynalmilal)ni qoʻllash; morfologik (affiksatsiya, abbreviatsiya), sintaktik (kompozitsiya) va semantik soʻz yasashi vositalariga murojaat qilish [17, 16].

Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo boʻlishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi toʻsiqlar, yasash tamoyillari va usullari xususida turli gʻoyalar, nuqtai nazarlar koʻzga tashlanadi. Termin soʻzi interpretatsiyasining substansional, funksional, derivatsion, semantik va pragmatik prinsiplari eʼtirof etilmoqda. Substansional nuqtai nazar vakillariga koʻra, termin maxsus soʻz yoki soʻz birikmasi boʻlib, boshqa nominativ birliklarga nisbatan bir maʼnoliligi, aniqligi, sistemliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turadi. Funksional nuqtai nazarga binoan, terminlar maxsus soʻz emas, balki maxsus funksiyaga ega soʻzlardir; terminning oʻrni (roli)ni istalgan soʻz bosishi, oʻynashi mumkin. Derivatsion nuqtai nazar terminlarning yasash jarayonlari bilan chambarchas bogʻlangan. Ushbu gʻoya tarafdorlarining fikricha, termin nafaqat oddiy soʻzning varianti, shuningdek, yangi, oʻziga xos belgilarga ega maxsus yasalgan birlik sifatida ham tan olinadi. Yangi terminlarning yuzaga chiqish sabablari yangi realiyalarni ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi. Terminga muayyan talablar qoʻyiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy soʻzlardan ajratib turadi. Nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini oʻzida mujassam etadi. Ularning miqdori haddan ortiq darajaga yetganda, maxsus strukturani taqozo etadi. Masalan, hozirgi kunda 200 mingdan ortiq oʻsimlik turlarining har biriga alohida nom qoʻyishga urinish befoya, buning imkoni ham yoʻq [17, 7].

Terminologiyaning oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va koʻp maʼnolilik tilning boyligi boʻlsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi [29].

Yuqoridagi fikr, qarashlar umumlashtiriladigan boʻlsa, terminning quyidagi xususiyatlari namoyon boʻladi: 1) tizimlilik; 2) taʼrifning mavjudligi; 3) mazkur terminologik maydon doirasida monosemiyaga moyillik; 4) uslubiy betaraflik. Har qanday termin oʻzida ana shu xususiyatlarni mujassam etgan boʻlishi shart.

Termin odatda bir terminologik maydon (yaʼni bir soha) doirasida oʻrganiladi. Aks holda tegishli sohalar terminlari aralashtirib yuboriladi. Masalan, tilshunoslik, matematika, fiziologiya hamda biologiyadagi “funktsiya” termini kabi. Turli sohada qoʻllanadigan bir termin sohalararo omonimiyani hosil qiladi [3, 508]. Aks holda, termin umumtil leksikasiga aylanadi, yaʼni determinologizatsiyaga uchraydi. Terminologizatsiya va determinologizatsiya jarayonlari termin va noterminlarning bir-biriga oʻtib turishidan dalolat beradi.

Terminologizatsiya (uning asosini koʻpincha metafora tashkil etadi) bilan bir qatorda reterminologizatsiya (boshqa sohadan tayyor terminni oʻzlashtirish, masalan, valentlik ximiyada va valentlik tilshunoslikda) ham termin yasash usullariga kiradi. Shuningdek, termin boshqa tillardan oʻzlashtirilishi (jumladan, kalbka usuli bilan ham), mazkur til imkoniyatlari asosida yasashi yoki baynalmilal usullar orqali ham hosil qilinishi mumkin. Bu holatlarning barchasi mazkur tilning fonetik va grammatik qonun-qoidalariga boʻysunadi.

X.Dadaboev oʻzbek tilida terminologiya masalalari toʻgʻrisida toʻxtalib quyidagini taʼkidlaydi: “Oʻzbek terminologiyasining oʻz boyliklari hisobiga taraqqiy etishi ikki yoʻl bilan voqeanadi: a) tilda mavjud, tayyor soʻzlardagi yangi narsa-predmet va tushunchalarni ifodalashda foydalanish; b) oʻzbek adabiy tili soʻz yasash imkoniyatlari ishtirokida yangi terminlar yaratish” [7, 24].

O.Axmedov terminologiyaga tabiiy shakllanadigan leksik qatlam sifatida qarab, undagi har bir birlik isteʼmol qilinishi uchun oʻzining aniq ifodasi va chegarasiga, “yashashi” uchun esa optimal sharoitga egaligini taʼkidlaydi [2, 19].

Shu bilan birga, terminologik leksika ham xalq tili leksik tarkibining boyishiga katta taʼsir etadi. Bu esa til bilan terminologiya oʻrtasidagi aloqaning ikki tomonlama ekanligini bildiradi. Mazkur aloqa umumisteʼmoldagi leksikaning terminologik leksika bilan oʻzaro munosabatida ayniqsa

yaqqol ko'rinadi. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda.

Adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966.
2. Ахмедов, О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанлари докт. дис... автореф. – Тошкент, 2016. – Б.19.
3. Васильева Н.В. Термин // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 509.
4. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языкознанию. – М., 1961. – С.3-10.
5. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. - М.: МГУ, 1972. - С.68 -71.
5. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2.-М.,1991. №10.- С.1-4.
6. Дадабоев Х. Ҳозирги ўзбек тили қурилишида ўзбек тилининг ўрни// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2015. – Б.24 – 31.
7. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики.- М.:МГУ,1971.
9. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания.- М.: Наука, 1977.
9. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish (ikkinchi nashri). – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 264 b.
10. Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. –Изд.4-е.Книжный дом: Либроком, 2009.
12. Лотте Д.С. Краткие формы научно-технических терминов. - М.: Наука, 1971.
13. Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии. Т.1.-М.: Московский лицей, 1994.
14. Мадвалиев А.Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари.Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.-Б.28-30.
14. Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг киёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. – Т., 2009. – 25 б.
15. Словарь иностранных слов, под ред. Петрова Ф.Н. 18-изд. – М.: Русский язык, 1989. – 606 б.
16. H.Dadaboyev. O'zbek terminologiyasi. – T., 2019. – 118 b.
17. Oxford Advanced Learner's Dictionary, 7th edition. – Oxford University Press, 2006. – 1715 p.
18. Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. - London, 1967.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд // З.М.Маъруфов таҳрири остида. – М.: Рус тили, 1981. – 631 б.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд // З.М.Маъруфов таҳрири остида. – М.: Рус тили, 1981. – 715 б.
21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд // А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 679 б.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд // А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.